

# **TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARIDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING BA'ZI JIHATLARI**

**Xayitov Jonibek Xolboboyevich**

*Termiz davlat universiteti texnologik ta'lif kafedrasini o'qituvchisi.*

*e-mail: [jonibekhaitov@bk.ru](mailto:jonibekhaitov@bk.ru)*

**Annotatsiya:** Maqolada bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kreativlik qobiliyatini rivojlanirish hamda ularni ijodkorlik ruhida tarbiyalash masalalari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar :** texnologiya, o'qituvchi, kreativ, qobiliyat, rivojlanirish.

\*\*\*

**Резюме:** В статье рассматриваются вопросы развития творческих способностей будущих учителей-технологов и воспитания их в духе творчества.

**Ключевые слова:** технология, учитель, творчество, способности, развитие.

\*\*\*

**Annotation:** The article addresses the issues of developing the creative abilities of future technology teachers and educating them in the spirit of creativity.

**Keywords:** technology, teacher, creativity, ability, development.

Bugungi kunda ta'lif jarayonida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlanirish muhim masalalardan biri sanaladi. Shuning uchun ham bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini ijodkorlik ruhida tarbiyalash ijodkor insonlar bilan davra suhabatlarini olib borish har - bir o'tilayotgan darslarni ijodkorlilik bilan tashkil qilish zarur. shu jumladan pedagogik oliy o'quv yurtlarida Texnologiya fani o'qituvchilarini kreativlik qobiliyatini rivojlanirishni rag'batlantiradigan psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish zarur. Bugungi kunda jamiyatning oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarga to'g'ri yondashgan holda ularni amalda bajarish o'qituvchining vazifasidir. Pedagogik faoliyat inson mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir.

Kreativlik tushunchasi(lot., ing. "tscreate"-yaratish, "tscreative"yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma'nosini anglatadi. Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish mumkun. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikirlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkun. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi.[2]

"Kreativlik otasi" nomi bilan mashhur Pol Torrans to'rtta kreativlik konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko'nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkun:

1. Ravonlik. Ko'plab g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi ko'p degan so'zga asoslanadi.
2. Moslashuvchanlik. Turli g'oyalarni o'ylab topish ko'nikmasi o'zgartirish degan so'zga asoslanadi.
3. O'ziga xoslik. Boshqalarga o'xshamagan, ajralib turuvchi g'oyani o'ylab topish ko'nikmasi noyob degan so'zga asoslanadi.
4. Yaratuvchanlik. G'oyalarni kengaytirish ko'nikmasi qo'shish degan so'zga asoslanadi.[1]

Xorijiy pedagoglar, xususan, Patti Drapeauning fikricha, bir shaxsning ayniqsa o'qituvchining kreativligi boshqalarni ijodiy jarayonini tashkil etishga ruhlantiradi. Shaxsning ijodiy fikrashi va kreativligini rivojlantirishga yordam beradigan quyidagi shart-sharoitlar mavjud, ijodiy qobiliyatlar va ijodiy motivatsiyaning mavjudligi. Shu bilan birga, agar bu uchta omil bir-biriga to'g'ri keladigan bo'lsa, ijodiy qobiliyatlarning yuqori darajadagi namoyon bo'lishi mumkin. 1) aniq belgilangan va qat'iy nazoratdan farq qiladigan to'liq bo'limgan holatlar; 2) kelgusi faoliyat uchun strategiya va vositalarni yaratish va ishlab chiqish; 3) mas'uliyat va mustaqillikni rag'batlantirish; 4) mustaqil ishlanmalar umumlashmalar, kuzatuvlarga e'tabor berish. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarda kreativ fikrlashlarini shakllantirish jarayonida, muammoli ta'lim texnologiyalaridan o'quv, ilmiy va kasbiy pedagogik muammolarni shakllantirish va hal qilishni ta'minlashda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun zamonaviy oliv ta'lim muassasalarida o'qitishning barcha tashkiliy shakllari va usullarini bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish: ma'ruzalar, amaliy va seminarlar, mustaqil va yakka tartibdagi ishlarga bo'ysundirish hamda ularni jalg qilish zarur. Ma'lumki, muammoli ma'ruza talabalarning o'rganilayotgan masalalarga qiziqishini uyg'otadi, qo'shimcha ma'lumot izlashda faollik va mustaqillikni rag'batlantiradi.

Shu bilan birga, o'qituvchi tomonidan taklif qilingan muammolarni hal qilish jarayonida ular tomonidan mustaqil qo'shimcha bilimlar olinadi. Muammoli ma'ruzalarga quyidagilar kiradi: ma'ruza-dialog, ma'ruza-munozara, ma'ruza-munozara va boshqalar. Muammoli amaliy va seminar mashg'ulotlari turli shakllarda o'tkazilishi mumkin, masalan: mavzuning individual masalalari bo'yicha munozaralar shaklida; munozara, debat (qo'shimcha o'quv materialini mustaqil o'rganishni talab qiladigan) shaklida; barcha o'quvchilarning diqqatini faollashtiradigan va dalillarga asoslangan fikrlashni rivojlantirishga hissa qo'shadigan tezislarni himoya qilish shaklida; kelajakdag'i o'qituvchilarning nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradigan kasbiy va pedagogik muammolarni hal qilish shaklida; mutaxassislarni tayyorlashning faol usuli bo'lgan ishbilarmonlik o'yinlari shaklida, chunki ular tadqiqot, o'qitish va

ta’limning ayrim shakllaridan foydalanishni o’z ichiga oladi. Bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining ajralmas qismi bo’lgan amaliy mashg’ulotlar loyiha usosida tashkil etilishi kerak.[3]

Bo’lajak Texnologiya fani o’qituvchisining kreativligi, bu uning qat’iy chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil haqiqiy g’oyalarni izlab topish layoqatidir. Bo’lajak texnologiya fani o’qituvchisining kreativ bo’lishi uchun kishi ko’proq kreativ insonlar bilan muloqat qilishi va hamisha izlanishda bo’lishi lozim. Har qanday ko’nikmani shakllantirish mumkin bo’lganday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko’nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Buning uchun bo’lajak Texnologiya fani o’qituvchilari doimo o’z ustida tinimsiz ishlar olib borish shu bilan birgalikda kreativ insonlar bilan yaqindan suhbatlar olib borish kreativlik qobiliyatlarini o’zida shakllantirish kerak. Bu bo’lajak Texnologiya fani o’qituvchilari uchun juda muhim bo’lib, kreativlik ustida ishslash bo’lajak Texnologiya fani o’qituvchilariga noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq bo’lajak Texnologiya fani o’qituvchilarini ruhlantirish va kreativ bo’lishga undash o’qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog’liq. Shuning uchun ham bo’lajak Texnologiya fani o’qituvchilarini ijodkorlik ruhida tarbiyalsh muhim masalalardan biri sanaladi.[4]

Bo’lajak o’qituvchilarda kreativ fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishda pedagog alohida o’rin tutadi. Bu jarayonda “pedagogning roli auditoriyada kreativlik muhitini yaratishdan iborat. Vaholanki, pedagog guruhda bo’lajak o’qituvchilar o’zini erkin sezaga oladigan va o’z fikrlari, g’oyalari bilan bo’lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Bo’lajak o’qituvchilar inson ongida yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o’rnatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollar berishda erkin harakat qilishlari kerak. Pedagog bo’lajak o’qituvchilardagi kreativlikni noodatiy g’oyalarni o’rtaga tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag’batlantirish orqali qo’llab-quvvatlaydi.

Pedagogning bo’lajak o’qituvchilar berayotgan kreativ g’oyalara nisbatan to’g’ri munosabati ularning mumkin bo’lgan va mumkin bo’lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi pedagog-talaba munosabatining muhim qismi bo’lib, bo’lajak o’qituvchilar muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Kreativ muhitda ta’lim olayotgan bo’lajak o’qituvchilarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega pedagogni kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo’ladi. Kreativlik xarakteridagi o’quv-bilish muhiti bo’lajak o’qituvchilarda ta’lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo’lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko’nikmasining rivojlanishiga olib keladi.

Har bir bo’lajak Texnologiya fani o’qituvchisi ijodkor bo’lishi va har bir dars davomida ham ijodkor bo’lishi kerak. Kreativlik bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar

va kreativlik nazariyachilarining ishlari bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarining kreativlik ko'nikmasini shakllantirishda qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Bu auditoriyadagi muhit, bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini fikrlash tarzining shakllanishi, o'qituvchining yondashuv va strategiyalari elementlarini o'z ichiga oladi. Texnologiya fani o'qituvchilarini o'z kasbining bilimdoni qilib tayyorlashda oliy o'quv yurtlaridagi talabalar ilmiy tadqiqot ishlari metodologiyasini yaxshi yo'lga qo'yish katta rol o'ynaydi. Bunday ilmiy tadqiqot metodologiyasi bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning asosiy jihatni hisoblanadi.[5]

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda tadqiqotchilik ko'nikmalarining o'rni muhim. Bularga nazariy o'rganish, kuzatish, muammoni qo'ya bilish, faraz qilish, farazdan kelib chiqib reja tuzish, tajriba o'tkazish, tajriba natijalarini olish, farazga nisbatan tajriba natijasini taqqoslash, nazariy tahlil qilish va umumlashtirish, amalda qo'llab ko'rish kabilalar bilan bog'liq ko'nikmalar kiradi. Aytilganlarning ba'zilari fan asoslarini o'rganishda, ba'zilari amaliyot jarayonida, yana boshqalari izlanish ishlari orqali shakllanadi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining faoliyatida, muammoni qo'yish uchun tadqiqot vazifasi birinchi o'ringa o'tishi maqsadga muvofiq, chunki unda bajariladigan ishning maqsadi va unga bo'lgan ehtiyoj o'z aksini topadi.

Har bir bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining o'zini- o'zi rivojlantirishi va o'zini- o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishslash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarda poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining o'zini-o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi.[6]

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda tez

suratlarda rivojlantirilib boriladi. Odatda kreativlik bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida ko'zga tashlanmasada, biroq bu holat kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- 1) ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;
- 2) bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari ning qiziqishlariga e'tibor qaratish

Bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilari doimo ijodkor bo'lishi kerak shundagini o'z fanining ustasi bo'ladi. Ta'lim jarayonida ham ularni kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishga shart-sharoit yaratib berish kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A va boshq.. Texnologiya fanini o'qitish va psixologik xizmatni tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.-T.: „Muhammad poligraf “MCHJ, 2017
2. Bekmurodova S.Texnologiya fanini o'qitishda yangicha yondashuv.T.: 2017
3. Shomirzayev M.X. Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muammolari // Zamonaqiy ta'lim. – T., 2019.
4. Muslimov N.A. "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy komponentligini shakllantirish texnologiyasi" /Monografiya. -T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
5. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik.. –T.: “TerDU nashr-matbaa markazi”, 2020. – 226 b.
6. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari. O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. –T.: 2019. – 72 b.
7. Шомирзаев М.Х. Ўзбекистонда миллий хунармандчилик ривожланишининг тарихий – ижтимоий асослари / Таълим-тарбия контекстида фанлараро синхрон ва асинхрон боғланишлар. Илмий-услубий мақолалар тўплами. – Т.: Noshirlik yog'dusi, 2019. - Б.52-57.
8. Шомирзаев М.Х. Технология фани жараёнида ўкувчиларни тадбиркорлик ва кичик бизнес фаолиятига тайёрлаш / Таълим-тарбия контекстида фанлараро синхрон ва асинхрон боғланишлар. Илмий-услубий мақолалар тўплами. –Т.: Noshirlik yog'dusi, 2019. -Б.176 -178.